

## **“Hududgazta`minot” AJ huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi faoliyati**

“Hududgazta`minot” AJ huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi joriy yilning avgust oyidan ish boshladi. Ushbu Kengash “Hududgazta`minot” AJning 2022 yil 14 iyuldagi 164-son buyrug‘iga asosan tuzildi.

Jamoatchilik kengashining tarkibiga Jamiyat xodimlari, faxriylari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining vakillari kiritildi.

“Hududgazta`minot” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq tizim tashkilotlari bo‘lgan hududiy gaz ta‘minoti filiallari va tuman (shahar) gaz ta‘minoti bo‘limlarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar tahliliga ko‘ra, tuman (shahar)larni “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratish hamda “qizil” hududlar bilan alohida ishlash tizimini joriy etish holati o‘rganib chiqildi.

O‘rganish yakunlaridan kelib chiqib, “Hududgazta`minot” AJning quyi tizim korxonalarida murojaatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoida va talablarni amaliyotda aniq va bir xilda qo‘llanilishini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar tahliliga ko‘ra, tuman (shahar)larni “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratish hamda “qizil” hududlar bilan alohida ishlash tizimini to‘laqonli joriy etilishini ta‘minlash bo‘yicha **takliflar kiritildi.**

**Takliflarda** tizim korxonalari rahbarlarining e‘tibori O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentyabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-son Qonunida nafaqat jismoniy shaxslar, balki yuridik shaxslarning ham davlat organlari va muassalariga murojaat etishga oid munosabatlari tartibga solinganligiga;

Jamiyatning 2022 yil 10 martdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Hududgazta`minot” aksiyadorlik jamiyatida, uning tasarrufidagi hududiy gaz ta‘minoti filiallari va tuman (shahar) gaz ta‘minoti bo‘limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan qoida va talablarni o‘z vaqtida, aniq va to‘laqonli amalga oshirilishi yuzasidan ta‘sirchan choralar ko‘rilmaganligiga **qaratildi.**

Shuningdek, **“yashil”** hudud deb baholangan tuman (shahar)larning murojaatlar bilan ishlashda samaradorlik bilan faoliyat ko‘rsatish borasidagi ish tajribalarini **ommalashtirish;**

**“qizil”** hudud deb baholangan tuman (shahar)larga amaliy yordamlar ko‘rsatgan holda ko‘maklashish, tuman (shahar)larning murojaatlar bilan ishlashda “qizil” hudud darajasiga tushib qolishga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha **tizimli choralar ko‘rish tavsiya etildi.**

Hududiy gaz ta‘minoti filiallari, ularning tuman (shahar) gaz ta‘minoti bo‘limlari rahbarlari va murojaatlar bilan ishlashga mas‘ul bo‘lgan xodimlarining **bilim va tajribasini** oshirish uchun ularning murojaatlar to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarida belgilangan qoida va talablardan **xabardorlik darajasini oshirish zarurligi** to'g'risida tushuntirishlar berildi.

“Hududgazta`minot” AJning 2022 yil 9 sentyabrdagi 18-19/100-son topshirig'i bilan barcha hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlariga 2022 yilning I yarim yilida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqib, ishlar tashkil etish vazifasi yuklandi.

Ushbu topshiriq ijrosi bo'yicha hududiy gaz ta'minoti filiallari tomonidan taqdim etilgan axborotlarga ko'ra, murojaatlar bilan ishlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tegishli tuman (shahar) gaz ta'minoti bo'limlari rahbarlari ishtirokida jiddiy muhokama etilgan, ularni bartaraf etish va kelgusida yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Natijada, **2022 yilning 9 oy yakunlari** bilan **“Hududgaz Jizzax”**, **“Hududgaz Samarqand”**, **“Hududgaz Surxondaryo”** gaz ta'minoti filiallarining jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar tahliliga ko'ra, “qizil” hududga toifalangan tumanlardagi barcha tuman gaz ta'minoti bo'limlari tomonidan “qizil” hududdan “sariq” va “yashil” hududlarga to'liq o'tish choralari ko'rilgan.

Shuningdek, **“Hududgaz Navoiy”** gaz ta'minoti filiali bo'yicha Konimex tumani va Zarafshon shahri, **“Hududgaz Namangan”** gaz ta'minoti bo'yicha Namangan, Koson tumanlari, **“Hududgaz Sirdaryo”** gaz ta'minoti filiali bo'yicha Sardoba tumani va Shirin shahri, **“Hududgaz Toshkent”** gaz ta'minoti filiali bo'yicha Bo'ka, Quyi Chirchiq, O'rta Chirchiq tumanlari, **“Hududgaz Farg'ona”** gaz ta'minoti filiali bo'yicha Beshariq, Toshloq, Bog'dod, So'x tumanlari va Farg'ona shahri “qizil” hududdan “sariq” va “yashil” hududlarga o'tkazilgan bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish choralari ko'rilgan.